

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini
“Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid
davlat dasturi to‘g‘risida” 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmonida
vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi bo‘yicha
MA’LUMOT**

Prezident tomonidan imzolangan **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini
“Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat
dasturi to‘g‘risida”** 2024-yil 21-fevraldagi **PF-37-son Farmoni** va u bilan
tasdiqlangan Davlat dasturida **21 ta** vazifada Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar **asosiy ijrochi** sifatida, shuningdek
34 ta vazifada esa **hamijrochi** sifatida belgilangan.

Shundan **16 ta** vazifada – Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
4 ta vazifada – Innovatsion rivojlanish agentligi hamda **1 ta** vazifada – Bilim va
malakalarni baholash agentligi **asosiy ijrochi** hisoblanadi.

Mazkur **21 ta vazifa ijro.gov.uz** tizimi bo‘yicha **51 ta kichik bandlarga**
bo‘lingan bo‘lib, bugungi kun (*mart-dekabr*) holatiga ushbu kichik bandlarning
barchasining ijrosi **to‘liq ta’minlandi**.

Shu bilan birga ushbu davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosi
yuzasidan **4 ta normativ-huquqiy** hujjatlarning loyihalari ishlab chiqildi.

O‘tgan davr mobaynida vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar tomonidan
Davlat dasturi doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Jumladan:

oliy ta’lim tashkilotlari pedagoglari faoliyati samaradorligini oshirish
yuzasidan **AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Rossiya, Janubiy Koreya hamda
Yaponiya** kabi xorijiy davlatlardagi oliygohlarda **professor-o‘qituvchilar
reytingini yuritish tajribalari chuqur tahlil qilinib**, tahlillar asosida respublika
oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining **reytingini yuritish tartibi**
yuzasidan takliflar ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasiga kiritildi;

professional ta’lim muassasalarining pedagog kadrlari tarkibiy sifatini
yaxshilash, ularning malakasini ilg‘or xorijiy tajriba asosida oshirish yuzasidan
**AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Germaniya, Kanada, Janubiy
Koreya** kabi rivojlangan davlatlarning dasturlari tahlil qilindi;

pedagog kadrlarning malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojlari asosida
pedagog kadrlarni malaka oshirish kurslari va metodik seminarlarga respublika
bo‘yicha jami **5 174 nafar** rahbar va pedagog xodimlar jalb qilindi. Ushbu

kurslarga **Germaniya, Shveysariya, Turkiya** davlatidan hamda Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoda salohiyatli yoshlar uchun **muloqot va amaliy harakatlar (DARYa)** loyihasidan **tajribali mutaxassislar jalb etildi;**

viloyatlarda faoliyat yuritayotgan **479 nafar** ishlab chiqarish ta'limi ustalari **hududiy kurslarda** o'qitildi;

pedagog kadrlar faoliyatini baholash orqali ularning sifat tarkibi **30 foizga** yetkazildi;

yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi **43 foizga** yetkazildi;

nodavlat va respublikada faoliyat olib borayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarga kunduzgi ta'lim shaklida davlat buyurtmasi qabul parametrlari **20 foizga** oshirildi;

2 ta oliy ta'lim muassasasi (*O'zbekiston milliy universiteti hamda TIQXMMI MTU*) Buyuk Britaniyaning nufuzli **"QS Quacquarelli Symonds"** reytingi ro'yxatidan joy oldi;

2 ta oliy ta'lim tashkilotining ta'lim dasturlari (*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti*) MTU va *Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*) **xalqaro akkreditatsiyadan** o'tkazildi;

oliy ta'limning bakalavriat yo'nalishlari **40 foizga** (*306 tadan 183 taga*), magistratura mutaxassisliklari **15 foizga** (*625 tadan 528 taga*) maqbullashtirildi;

"Top-500"ga kiradigan xorijiy universitetlar (*Istanbul texnika universiteti, Xitoyning sian politexnika universiteti, Avstraliyaning "Edith Sovan" universiteti*) bilan hamkorlikda **qo'shma ta'lim dasturi** asosida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi;

qo'shma ta'lim dasturi (*ikki diplomli tizim*) asosida kadrlar tayyorlash (*Rossiya Federatsiyasining Milliy tadqiqotlar yadro universiteti, Moskva muhandislik-fizika instituti*), *Rossiya Federatsiyasining Qozon federal universiteti, Malayziyaning MARA texnologiya universiteti*) bo'yicha hamkorlik a'loqalari o'rnatildi. Ushbu oliy ta'lim muassasalari bilan **10 ta** qo'shma ta'lim dasturi asosida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yildi;

muhandislik sohasida kadrlar tayyorlovchi **33 ta** davlat oliygohining faoliyati **kompleks tahlil** qilindi. Bugungi kunda mazkur oliy ta'lim muassasalari talabalarini amaliyotlarini tashkil etish maqsadida respublikada faoliyat yuritayotgan **2 000 dan** ortiq tegishli **tarmoq korxonalari** bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilli;

2024-yil davomida oliy ta'lim muassasalarida **47 282 o'rinli 91 ta**, shundan, **31 882 o'rinli 59 ta** davlat-xususiy sheriklik asosida, **15 400 o'rinli 32 ta oliygoh va budjet mablag'lari hisobidan** talabalar turar joylarini barpo etish

loyihalari amalga oshirildi. Joriy yil holatiga oliy ta'lim muassasalarida **25 624 o'rinli 66 ta** talabalar turar joylari yaratildi. Bugungi kunda, **21 658 o'rinli 25 ta** talabalar turar joylarida ishlar davom etmoqda;

dunyoda tan olingan ilmiy maktablar bilan hamkorlikda **matematika, biologiya, kimyo, geologiya, fizika, epidemiologiya, seysmologiya, bioxilma-xillik** kabi yo'nalishlarda fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun kompleks ilmiy dasturlarni amalga oshirish maqsadida normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqildi.

***Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy va innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularni qo'llab-quvvatlashning tubdan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi Farmoni loyihasi (ID-100088 (V-1)).*

o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi bo'yicha birlamchi yozma manbalar asosida ta'lim berish hamda ushbu yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish maqsadida *O'zbekiston milliy universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Buxoro davlat universiteti hamda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi* kabi **manbashunoslik yo'nalishida** kadrlar tayyorlaydigan davlat oliy ta'lim muassasalari **dasturlari tahlil** qilindi. Ushbu yo'nalishdagi talabalar **amaliyotini tashkil etish** yuzasidan **hamkorlik shartnomalari** tasdiqladi;

ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish loyihalari asosida ilmiy tashkilotlar va tadbirkorlik sub'ektlari o'rasida tuzilgan shartnomalarni **280 taga** yetkazish maqsadida **"Tijoratlashtirish loyihalarini moliyalashtirish tartibini belgilovchi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasi"** ishlab chiqildi.

***Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy va innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularni qo'llab-quvvatlashning tubdan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi Farmoni loyihasi (ID-100088 (V-1)).*

oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida **"Yosh kitobxon talabalar ligasi"** tanlovini tashkil etish hamda qo'shimcha ravishda **6 ta** tilda (*qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus, qirg'iz va turkman*) o'tkazildi;

muhandis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqildi.

***Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muhandis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori loyihasi ishlab chiqildi (ID-1150).*

fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun ilmiy loyihalar tanlovini o'tkazish tartibini takomillashtirishni nazarda tutuvchi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqildi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy va innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularni qo'llab-quvvatlashning tubdan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi Farmoni loyihasi (ID-100088 (V-1)).